

YOSHLAR O‘RTASIDA UZLUKSIZ TA‘LIM VA TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Bektemirova Zuxra Omonjon qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonda ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini amaliyotga joriy etish, mamlakatimizda yoshlar ma‘naviy tarbiyasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar xususida fikr bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya kontseptsiya, ma‘naviy salohiyat, kompetentsiya, takomillashtirish, yoshlar, axloq

Hozirgi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 64 foizini tashkil etadi. Shu sababli yoshlarning tarbiyasiga, kamolotga yetishiga huquqlarini himoya qilishga e‘tiborni qaratish davlat siyosatining ustivor yo‘nlislaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”. [1]

Yoshlarni tarbiyalash, mamlakat kelajagini ta‘minlash bu davlat buyurtmasidir. Shu sababli ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va uni tashkil etish metodikasi fanining predmeti fanning yuzaga kelishi, ma‘naviy tarbiyaning yoshlarga ta‘siri, yoshlarning jamiyat hayotidagi roli uzluksiz ta‘limni insonparvarlashtirishda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning, ahamiyati, ma‘naviyat, ma‘rifat, mafkura tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi va yangi texnologiyalardan foydalanish yo‘llarini o‘rganishdan iboratdir.

Ushbu fanning ilmiy-nazariy, tarixiy-falsafiy asoslarini qadimgi davr faylasuflari va allomalari asoslari, xalq o‘zaki ijodiyotining ajoyib durdonalari, Sharq va G‘arbning o‘rta asrlarda ijod qilgan buyuk allomalarining fikrlari, yangi va eng yangi davrda yaratilgan ilm-fanning noyob durdonalari, Prezidentimiz asarlarida yoritilgan Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va tarbiyaga oid fikrlari tashkil etadi.

O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. [2]

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning samarali usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish hisoblanadi.[3]

Globallashuv jarayonlarini tahlil qilgan olimlar bu jarayonlarda davlatning rolini turlicha baholaydilar. Ayrim nazariyalarda globallashuv jarayonida davlatning roli tobora pasayib borishi uqtirilsa, boshqalarida uning o'rni va ahamiyati o'zgarmaydi, deb ta'kidlanadi. Yana bir guruh olimlar esa globallashuv sharoitida davlat bilan davlatlararo tashkilotlar o'rtasida siyosiy hokimiyat qayta taqsimlanib, davlat ularga o'z suverenitetining bir qismini beradi, degan farazlarni ilgari surmoqda.

“Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi”da belgilanganidek, uzluksiz ma'naviy tarbiya bu juda katta ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Bugun tobora shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, ma'naviyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, ma'rifatlilik, bag'rikenglik, kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda. Yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olmaslik, ijtimoiy muammolarni hal etishda to'g'ri qaror qabul qilish, hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarning shakllantira olmaslik kabi muammolar ham mavjud.[4]

Jamiyatimiz fuqarolarini ma'naviy jihatdan kamol toptirish uchun ikki muhim narsani o'zaro uyg'un holda qo'shib olib borish lozim. Biri boy ma'naviy va madaniy merosimizni chuqur va har tomonlama o'rganishimiz, chor Rossiyasi mustabidligi hamda sho'rolar istibdodi davrida unutilishga mahkum etilgan qadriyatlarimizni tiklashimiz, zamonamizga muvofiqlaridan, davrimizda bizga foyda beradiganlaridan oqilona foydalanishimiz kerak. Ikkinchisi esa, butun insoniyat, xususan taraqqiy topgan mamlakatlarda yuzaga kelgan ma'naviy va madaniy yutuqlardan milliy xususiyatlarimiz va ruhiyatimizga muvofiq keladiganlarini ijodiy o'zlashtirishimiz lozim. Bu ikki xususiyatni o'zaro payvand qilish orqasida respublikamiz fuqarolarini ma'naviy jihatdan kamolga yetkazishning zamini bunyod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-apreldagi “Respublika “Ma'naviyat va ma'rifat” jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 8 iyundagi “Respublika ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi 1996 yil 9 sentyabrdagi “Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida”gi Farmoni “Ma'naviyat va ma'rifat” jamoatchilik markazi qoshida “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llabquvvatlash to'g'risida farmon va qaror buning yana bir yorqin dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 3

maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori imzolandi.[5]

Mamlakatni demokratik asoslarda qayta qurish va jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish – ko'p qirrali jarayondir. Bunda ta'lim-tarbiya tizimlarining o'rni, ahamiyati, shubhasiz, juda katta. O'zining kundalik tirikchilik tashvishlaridan ortmay qolgan, milliy-tarixiy qadriyatlaridan, urf-odatlar va qadimiy an'analaridan deyarli begonalashgan, tor ixtisoslik doirasida fikr yuritish va faoliyat ko'rsatishdan chiqqa olmagan, erkin va ijodiy fikr yuritishdan mahrum etilgan «sovet kishisi»ning ongi va dunyoqarashini o'zgartirish, qalbiga, ruhiga milliy va umuminsoniy qadriyatlar nurini singdirish, uning bugungi taraqqiy etayotgan madaniy olam, erkin va ilg'or fikrlovchi insonlar darajasida faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda ta'lim-tarbiya tizimlari oldida katta va keng miqyosli vazifalar turibdi. Bu, avvalo, yangi davr talablariga to'la javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashdir. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim-tarbiya sohasida nazarda tutilayotgan tadbirlarning g'oyaviy-nazariy asoslari milliy mustaqillik g'oyasi bilan chambarchas bog'liq.

Ma'naviy-axloqiy ustuvor vazifalarni amalga oshirish:

- ta'limni insonparvarlashtirishni ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish, bevosita fanlar bo'yicha ishlab chiqilgan ishchi dasturlarda ta'lim-tarbiya birligini ta'minlash;

- uzviylik va uzluksizlik mezonlariga amal qilgan holda ishlab chiqilgan yangi namunaviy o'quv dasturlarining yangi turkumini ta'lim amaliyotiga joriy qilish.

Ma'naviyat- bu kishini, egallagan foydali bilimlari (bilim turidan qat'iy nazar), uning hayotida takrorlanaverishi natijasida, ko'nikma va malaka bosqichlaridan o'tib ruhiga singib, uning hayot tarziga aylanib ketgan bosqichdagi ijobiy ijtimoiy sifatlardir. Demak ma'naviyat asosini bilim tashkil qilar ekan, bilim turlariga mos ravishda ma'naviyat turlarini sanab chiqsak bo'ladi. Bularga diniy ma'naviyat, axloq va odob ma'naviyati, dunyoni ilmiy bilish ma'naviyati, texnik ma'naviyat, kasbiy ma'naviyat va boshqalar kiradi. Axloq va odob ma'naviyati inson ijtimoiy mohiyatini eng ustki qavatini ya'ni, qobig'ini tashkil qilgani uchun, ba'zilar ma'naviyat deganda, kishining axloq va odobga oid bilimlarini uning hayot tarzida aks etishi deb tushunishadi. Bu ma'naviyatni tor ma'noda tushunishdir.

Haqiqatan ham uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirish jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni to'g'ri belgilash, o'qituvchi-talabalar ongiga mustaqil fikirlashni, turli mafkuraviy va ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish tuyg'ularini singdirish ularni kelajakka tayyorlashda muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29-dekabr;
2. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son; 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son
3. <https://daryo.uz/2020/01/06/uzluksiz-manaviy-tarbiya-konsepsiyasi-tasdiqlandi/>
4. <https://yuz.uz/uz/news/dunyoning-pedagogik-tajribasi-va-yutuqlari-mujassam-topgan-kontsepsiya->
5. <https://iqtidor.uz/uz/main/article/244>